

XITOIY XALQ RESPUBLIKASI ISLOHATLARINING TARIXIY AHAMIYATI (1949-1976) YILLAR

Boxodirov Alisher Kambarbek o`g`li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Magistratura, Tarix (yo`nalishlar va faoliyat turlari bo`yicha)

2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xitoy Xalq Respublikasi islohatlarining tarixiy ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: Urbanizatsiya, shaharlar, davlat, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot, tarixiy jarayon, Xitoy Xalq Respublikasi.

Xitoy Xalq Respublikasining innovatsion rivojlanish yo`li o`ziga xos. Respublikaning XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli aholining jadal sur`atlar bilan o`sishi, energiya resurslari yetishmasligi, hududlar notekis rivojlanganligi, ekologiya yomonlashuvi va inflyatsiya g`oyat yuqoriligi kabi dolzarb muammolar bilan tavsiflanar edi. Xitoy hukumati mazkur muammolarning yechimini investitsiyalar orqali hal etish yo`lini tanladi. Xitoyda innovatsion rivojlanishning o`ziga xos tamoyili chet eldan investitsiyalarni jalb etish va tayyor texnologiyalarni harid qilish, ishlab chiqarishga tatbiq etishdan o`z xususiy innovatsiyalarini yaratishva yuqori texnologiyali brendlarni vujudga keltirishga ustuvorlik berilganligida ko`rinadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar 1949-1976-yillarda boshlanib, davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun g`oyat katta imkoniyatlar yaratdi. Xitoyning o`zi ham innovatsion rivojlanishini chet eldan patentlar, litsenziyalar harididan boshlab, zamonaviy sanoat tarmog`ini shakllantirishga muvaffaq bo`ldi.

Xitoyning innovatsion rivojlanishini turli bosqichlarga ajratish mumkin. Bu davrlarda Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) ga sarmoyalarni jalb etishning huquqiy-shartnomaviy, tashkiliy asoslari vujudga keltirildi. Bu jarayonda soliqqa tortish, texnologiyalarni qabul qilish va tarqatish, mehnat munosabatlari, valyuta va bojxona masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik xujjatlari to`plami qabul qilindi. Soliqqa tortishda misli ko`rilmagan imtiyozlar berildi, mamlakatda korxonalar foydasidan olinadigan soliq stavkasi 33 foiz bo`lgan holatda, erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan, faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarda bu ko`rsatkich 15 foizni tashkil etgan edi.

Innovatsion rivojlanishning shu davrlarda Xitoyga chet el kapitalini nafaqat erkin iqtisodiy zonalar, balki davlatning boshqa hududlariga ham kiritish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yana kuchaytirish, kengaytirish, qonunchilikni yanada takomillashtirish masalalari muvaffaqiyatli hal etildi. 2-bosqichda erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalar ishlab chiqargan mahsulotning 50 foizi eksport qilindi, bu zonalaridagi infratuzilmalarni barpo etish harajatlarining 80 foizini Xitoy hukumati o`z zimmasiga oldi.

Xitoyda innovatsion rivojlanishning 3-bosqichida bugungi kunda mamlakatda mavjud bo'lgan texnik-texnologik tartibning poydevoriga aynan shu bosqichda asossolindi. Xitoyda innovatsion rivojlanishning ustuvor tamoyillaridan yana biri strategic rejalashtirish, prognozlash, dasturlash kabi iqtisodiy dastaklardan yuqori samara bilan foydalanishdir.

Xitoy Xalq Respublikasi - Markaziy va Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Dunyoda aholisi eng ko'p va maydoni jihatidan eng yirik davlatlardan biri. Sharqda Tinch okeanning Sariq, Sharkay Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Maydoni 9,6 mln. km². Poytaxti — Pekin shahri. Ma'muriy jihatdan 23 provinsiya (Xitoy Taypeyi ham shu hisobga kiradi), 5 muxtor rn va markazga bo'ysinuvchi 4 shahar (Pekin, Shanxay, Tyendzin, Chunsin)ga bo'linadi.



Sotsialistik tizim va SSSR tarqalib ketgandan so'ng Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) eng yirik sotsialistik davlat sifatida saqlanib qoldi. Xitoyga xos sotsializm qurish davom ettirildi. Hokimiyatni yagona Xitoy kommunistik partiyasi (XKP) egallab turibdi. 1989-yil Tyananmen maydonidagi tinch namoyish bostirilgandan so'ng uch yilga yaqin Xitoy siyosatida jiddiy o'zgarish yuz bermadi. 1992-yili Den Syaopin mamlakatning janubiy provinsiyalariga qilgan safari paytida bir qator bayonotlar berib, iqtisodiy islohotlar siyosatini kuchaytirdi. Islohotlar boshlangandan so'ng qo'lga kiritilgan yutuqlar tanlangan yo'lning to'g'riligiga odamlarni ishontirdi. Den Syaopin namoyishlarni tinch yo'l bilan to'xtata olgan Shanxay shahri meri Szyan Szeminni o'zining vorisi deb e'lon qildi. Shu davrda davlat apparati ham yarmiga qisqartirildi. Samarasiz ishlayotgan keksa amaldorlar o'rniga yoshlar keldi. XKPning Bosh kotibi iste'foga chiqib, o'rniga nisbatan yosh Xu Szintao saylandi.

2012-yili hokimiyatga kelgan Si Szipin boshchiligidagi XKP va XXR rahbarlarini «Xitoy orzusi»ni amalga oshirish g'oyasi birlashtirib turibdi. «Xitoy orzusi» deganda eng umumiy ma'noda «xitoy millatini tiklash» yo'lida ikki qadam – XKPning yuz yilligiga (2021-yil) «o'rtacha farovonlik» darajasiga erishish,

XXRning yuz yilligiga (2049-yil) esa jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olish tushuniladi.

1989-yili Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi shafqatsiz bostirilgandan so‘ng Xitoyga qarshi ma‘lum sanksiyalar e‘lon qilinishiga qaramasdan, mamlakatda islohotlar davom ettirildi. Mao Szedun davridagi bir qator tadbirlardan voz kechildi. Jamoa xo‘jaliklari tugatildi. Dehqonlar hosilning bir qismini erkin bozorda sotish imkoniyatiga ega bo‘ldi, shaharlar va qishloqlarda kichik mahalliy korxonalarini tuzish rag‘batlantirildi.

90-yillarda mamlakatda polat, rangli metallar eritish, sement, mineral o‘g‘it ishlab chiqarish, ko‘p tarmoqli mashinasozlik rivojlandi. To‘qimachilik sanoati mahsulotlari jahon bozorini egalladi. An‘anaviy hunarmandchilik; ipakdan, suyakdan badiiy buyumlar yasash, chinni mahsulotlar mashhur bo‘ldi. Dengiz mahsulotlari, dorivor o‘simliklar, yog‘och mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘paydi. Ishlab chiqarishda samaradorlik oshdi.

Den Syaopin tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida Xitoyning qirg‘oq bo‘yidagi to‘rtta viloyatini maxsus iqtisodiy zonalar deb e‘lon qildi. Bu iqtisodiy zonalarda chet el investorlari uchun qulayliklar yaratildi.

1997-yil fevral oyida Xitoy «islohotlarining otasi» Den Syaopin vafot etdi. Shu yil sentabrda XKP «Davlat sektorini modernizatsiya qilish dasturi»ni qabul qildi. Zarar keltirib ishlaydigan davlat banklari va korxonalaridan voz kechishga qaror qilindi.

Islohotlarning muvaffaqiyati natijasida XX asrning oxirgi yigirma yilida XXR ning YIMi olti martadan ko‘proqqa oshdi. XXR rahbariyati XXI asrning dastlabki yigirma yilidan ham o‘ta samarali foydalanishni maqsad qilib qo‘ydi. Iqtisodiy, harbiy, tashqi siyosiy qudratni oshirish va jahonda sifat jihatidan yangi o‘rinni egallash uchun «strategik imkoniyatlar bosqichi» sifatida qaraldi.

Xitoy 2001-yili Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lgandan so‘ng jahon bozorining imkoniyatlaridan va mamlakatning Yer yuzidagi «eng yirik fabrika» sifatidagi ustunligidan foydalanib, iqtisodiy o‘rinishning yuqori sur‘atlarini saqlab qoldi va jahon iqtisodidagi mavqeyini oshirdi. Davlat tashqi pul muomalasi zaxirasi 45 milliard dollarga yetdi. Xitoy oldingi iqtisodiy qoloq holatdan Amerika, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya va Italiyadan keyin dunyoda yettinchi o‘ringa chiqdi.

2017-yil oktabrda bo‘lib o‘tgan XKPning 19- Umumxitoy syezdida Si Szinpin Xitoy kommunistlarining azaliy maqsadi xitoy xalqining baxti uchun kurash va xitoy millatini tiklash ekanligini ta‘kidlab, XXI asr o‘rtalariga kelib Xitoy zamonaviy buyuk sotsialistik davlatga aylanadi, deb e‘lon qildi.

Iqtisodiy o‘rinishning muntazam yuqoriligiga qaramasdan, XXI asr boshlariga kelib, Xitoy bir qator jiddiy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarga duch keldi: boylar bilan kambag‘allar daromadi o‘rtasidagi farq keskin oshdi.

Xitoyning eng dolzarb muammolari qatoriga aholining tez keksayib borishi va ishlab chiqarishning ekologiyaga yetkazayotgan zararini kiritish mumkin. Xitoyda

uzoq yillar olib borilgan «bitta oila – bitta farzand» siyosati natijasida mamlakatda yoshlar soni keksa avlod soniga nisbatan kamayib bormoqda.

XXI asr boshlarida industrilashtirish, urbanizatsiya va xalqaro savdo ta'siri ostida energiya sarfi yuqori bo'lgan og'ir sanoat keng miqyosda jadal rivojlandi. Zaharli gazlar Xitoy shaharlarida juda og'ir ekologik sharoitni vujudga keltirdi. Qishloqlarda esa suvning ifloslanishi asosiy muammo bo'lib qolmoqda. XXI asrda asosiy vazifasi sifatida qaraladi.

Xitoyning dolzarb muammolaridan yana biri Sin szyan - Uyg'ur avtonom o'lkasida terrorizm xavfi juda kuchli. Faqat 2013-yili mintaqada 200 ga yaqin terroristik aktlar amalga oshirildi.

XXI asr boshida e'tibor faqat iqtisodiy yuksalishga emas, islohotlar jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga qaratildi. Shahar bilan qishloq, mamlakat g'arbiy qismi bilan sharqiy qismi rivojlanishi o'rtasidagi farq bilan bog'liq. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida davlatning asosiy e'tibori bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari Xitoy tashqi siyosatini Koreya Xalq Demokratik Respublikasini qo'llabquvvatlagani uchun tanqid qilib keladi. XXR hukumati jahon siyosatida Xitoyning rolini oshirishga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda va ayni paytda, ko'plab xalqaro masalalar bo'yicha neytral pozitsiyani egallab turibdi.

AQSH Xitoyning asosiy savdo hamkori bo'lib qolmoqda. Ammo ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda bir qator muammolar ham mavjud: AQSHning Osiyo-Tinch okean mintaqasida o'z ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosati oqibatida paydo bo'lgan ziddiyatlardir. AQSHning bu siyosati mintaqadan Xitoyni siqib chiqarishga qaratilgani uchun Pekinning jiddiy qarshiligiga uchramoqda. Xitoy va AQSH o'rtasida boshlangan qurollanish poygasi ham keskinlikni yanada kuchaytirmoqda.

XXI asr boshidan iqtisodiy masalalar bo'yicha strategik kelishuv mavjud bo'lib, muntazam uchrashuvlarda asosiy muammolar muhokama qilinadi. 2017-yil noyabr oyida AQSH prezidenti D. Tramp Xitoyga rasmiy tashrif bilan kelib, bir qator iqtisodiy hamkorlik masalalarini hal qilishga va 250 mlrd dollardan oshiq summaga savdo kelishuvini imzolashga erishdi.

XXR tashqi siyosatining asosiy maqsadi Osiyo va Afrika mamlakatlarida o'z ta'sirini oshirishga qaratilgan. Buning uchun Xitoy yetarli iqtisodiy, harbiy va siyosiy imkoniyatlarga ega.

Jahonning eng qadimiy va yirik davlatlaridan hisoblanadigan hozirgi Xitoy 1949-yil 1-oktyabrda tashkil topgan. Uning hududi 9,6 mln. km.kv ga teng. Maydonining kattaligiga ko'ra jahonda uchinchi o'rinni egallaydi. Bu mamlakat hududi g'arbdan sharqqa 5 ming km. ga, shimoldan janubga esa 3 ming km. gacha cho'ziladi.

Xitoy - xilma-xil tabiiy resurslarga juda boy. U toshkomir, temir va marganes rudalari, boksit va polimetallar surma, volfram, molibden, qalayi kabi mineral

xomashyolar bilan jahonda eng yaxshi ta'minlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Daryolar gidroenergetika resurslariga nihoyatda boy, bunday quvvatlar hajmiga ko'ra u dunyoda birinchi o'rinda turadi. Mamlakatning shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy hududlari esa o'rmonga boy. Jami hududining 8 foizi o'rmonlardan iborat. Shunday qilib, Xitoyda dunyodagi eng baland, sovuq va qurg'oqchil tog'liklar bilan iliq va mo'tadil iqlimli nam subtropik va tropik tabiatli hududlar yonma-yon joylashgan.

Xitoy - aholisining soniga (1350,0 mln kishi) ko'ra jahonda eng yirik mamlakat. Hozirgi vaqtda Xitoyda jahon aholisining 20 foizga yaqini yashamoqda.

Xitoyda aholi ko'payishini kamaytirishga olib keladigan o'ziga xos demografik siyosat amalga oshirilmoqda. Mamlakat Konstitutsiyasida qonunlashtirilgan bu demografik siyosatga ko'ra «bir oilaga bir bola» tavsiya qilinadi.

Mamlakat aholisining umumiy soni 1955-2013-yillar orasida 615 mln. dan 1350,0 mln. gacha, ya'ni 2,2 baravardan ortiqqa ko'paydi. Xitoy aholisi ana shunday qat'iy cheklashlarga qaramasdan, so'nggi vaqtda yiliga 12-13 mln. kishigacha ko'paymoqda.

Xitoy jahonning eng yirik mehnat resurslariga ega bo'lgan mamlakati hamdir. Unda 795,4 mln.dan ziyodroq mehnatga layoqatli aholi mavjud.

Aholisining milliy-etnik tarkibiga ko'ra Xitoyni bir vaqtning o'zida ham ko'p millatli, ham bir millatli mamlakatlar qatoriga kiritish mumkin. Xitoyda 60 dan orliq turli millat va elatlar yashaydilar. Bular uyg'urlar, mo'g'ullar, tibetliklar, dunganlar, manjurlar va boshqalardir. Shu sababli Xitoy ko'p millatli mamlakatlar qatorida turadi. Bir millatli mamlakat deyilishining sababi Xitoy aholisining 90 % dank o'prog'ini xitoyliklar – xanlar tashkil qiladi.

Xitoy aholisi hududiy jihatdan notekis taqsimlangan. Aholining o'rtacha zichligi har 1 km.kv maydonga 141 kishini tashkil qilgani holda, bu ko'rsatkich Buyuk Xitoy pasttekiligi qismida 400-500 kishini, Xuanxe va Yanszi daryolari oraliq tekisliklarida 800 -1000 kishini, cho'l va baland Tibet yassi tog'ligi hududlarida esa 1-2 kishini tashkil etadi. Aholisining 90 foizi mamlakat hududining 1/3 qismidagina to'plangan.

Xitoy jahonning o'rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlari qatoriga kiradi. Aholining 47,8% i shaharlarda yashamoqda. Bu 739,4 mln. kishini tashkil etadi. U hozirgi vaqtda jahon mamlakatlari orasida yirik shaharlar (450), millioner shaharlar (60) ning umumiy soniga hamda shahar aholisining mutlaq miqdoriga ko'ra birinchi o'rinda turadi. Faqat yirik va "millioer" shaharlardagina jami shahar aholisining 1/2 ga yaqin qismi yashamoqda. Shanxay (14,4 mln.kishi), Pekin (12,7 mln.kishi), Guanchjou (11,8 mln), Shenchjen (11,7), Dungan (7,6 mln), Tyanszin (7,2 mln) dunyoning eng yirik shaharlari qatoriga kiradi. Xitoy aholisining katta qismi qishloqlarda yashaydi. Unda 700 mingga yaqin qishloqlar hisobga olingan. Qishloqlar va qishloq aholisining soniga ko'ra ham bu mamlakat jahonda birinchi o'rinda turadi.

Xo`jaligi, transporti va ichki tafovutlari. Xitoy yillik ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmiga ko`ra jahonda uchinchi o`rinda turadi. Ammo ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning aholi jon boshiga to`g`ri kelish ko`rsatkichlariga ko`ra, u oddiy rivojlanayotgan davlatlar darajasidadir. Shuni ta`kidlash lozimki, so`nggi yillarda Xitoy iqtisodiyoti ancha tez o`smoqda.

YIM ishlab chiqarishda industrial tarmoqlar hissasi 41% ni, qishloq xo`jaligi 12% ni, xizmat ko`rsatish sohasi 47% ni tashkil etadi. Tashqi iqtisodiy aylanmasi 2012-yilda 2300 mlrd. AQSH dollarini yoki jahon bo`yicha 7,9% ni tashkil etdi. Shundan, 1290 mlrd. Dollarga teng qismi (56,1%) eksportga to`g`ri keladi.

Sanoati hozirgi tarmoqlarning deyarli barcha turlariga ega. Hozirgi industriyasining asosini neft va neft kimyosi, atom energetikasi, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, elektroenergetika, metallurgiya kabi eng ilg`or sanoat tarmoqlari tashkil qiladi.

Sanoat geografiyasida ham katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Agar Xitoyda XX asrning 70-80-yillarida sanoat korxonalarining 2/3 qismidan ko`prog`i dengizbo`yi hududlarida joylashgan bo`lsa, hozirgi industrial qurilishlarning asosiy qismi mamlakatning kam o`zlashtirilgan ichki rayonlarida olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda Xitoyda 750 mingdan ziyod sanoat korxonalarining mavjudligi va ularda 70 mln.dan ortiq ishchi-xizmatchilarning ish bilan bandligi ko`rsatkichlarining o`zi ham mamlakatda sanoat rivojlanishi darajasining tobora o`sb borayotganligini isbotlaydi.

Sanoatning tayanch tarmog`i – **yoqilg`i-energetika sanoatidir.** Yiliga 1,4 mlrd.t dan ortiq ko`mir qazib chiqarilmoqda. Uning asosiy konlari shimoli-sharqiy va sharqiy Xitoyda joylashgan.

Xitoyda 2012-yilda 300 mln.t ga yaqin neft (shimoli-sharqiy va sharqiy Xitoy hamda Sariq dengiz shelflaridan) qazib olindi.

Xitoy ishlab chiqaradigan elektroenergetika miqdoriga ko`ra jahonda AQSH va Yaponiya keyin uchinchi o`rinni egallaydi. Tarmoqda turli yoqilg`ilar asosida ishlaydigan IES lar salmog`i eng yuqoridir. Uning hissasiga ishlab chiqarilayotgan jami elektroenergiyaning 4/5 qismi to`g`ri keladi. IES larda yoqiladigan yoqilg`ilarning 3/4 qismi esa ko`mirdan iborat.

Xitoyda metallurgiya majmuyining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati bor. Undagi qora va rangli metall konlari birlamchi energiya manbalariga nisbatan juda qulay joylashgan. Qora metallurgiya sanoati tarmoqlari orasida yetakchilik qiladi.

Metall mahsulotlarining asosiy qismi esa Anshan, BaTou, Bensi, Baoshan, Pekin, Uxan, Shanxay kabi bir qator to`la siklli metallurgiya kombinatlari ishlab beradi. Umuman, Xitoy hozirgi vaqtda 400 mln. t dan ortiq po`lat ishlab chiqarmoqda. Bu ko`rsatkichga ko`ra u jahonda birinchi o`rinni egallaydi.

Rangli metallurgiyaning asosini alyuminiy, mis, qo`rg`oshin, rux kabi sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Xitoy rangli metallurgiyasining mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy korxonalar Xitoyning sharqiy va shimoli-sharqiy rayonlarida joylashgan.

Mashinasozlik sanoati Xitoyda, ayniqsa, tez rivojlanmoqda. Xitoyda televizorlar, maishiy xizmat texnikasidan tortib avtomobillar, kompyuterlar, turli o'lchov va elektrotexnika mahsulotlarigacha ishlab chiqarilmoqda. Mashinasozlik sanoati markazlari Shanxay, Shenyang, Tyanszin, Pekin, Chanchun, Xarbin va boshqalardir.

Kimyo, neft-kimyo va qurilish materiallari sanoati mamlakatni mineral o'g'itlar, maishiy-rozg'or mahsulotlari, sement kabi mahsulotlar bilan bilan ta'minlashda katta yutuqlarga ega. Mamlakatda 300 mln. t dan ortiq ortiq neft qayta ishlanmoqda.

Yengil va oziq-ovqat sanoati Xitoyda hamisha yetakchi sanoat tarmoqlaridan bo'lib kelgan. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati bu borada katta ko'rsatkichlarga ega. Jumladan, ip-gazlama sanoati (bu tarmoq to'qimachilik mahsulotlarining 90% ini yetkazib bermoqda) ishlab chiqarishda Xitoy jahonda eng yirik davlat hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi. Hozirgacha qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim sohasi bo'lib kelmoqda. Unda 400 mln. dan ortiq mehnat yoshidagi aholi ish bilan band. Xitoy qishloq xo'jaligining asosiy qismi dehqonchilikdir. Unda esa donchilik tarmog'ining salmog'i eng katta. Jami ekin maydonlarining 80% i turli ekinlar bilan band. XXI asr boshida mamlakat bo'yicha 450 mln. t dan ortiq don mahsulotlari hosili olindi.

Jahon bo'yicha hisoblaganda cho'chqalarning 40% i, turli ish hayvonlari (ot, ho'kiz, tuya va boshqalar) ning 20% i, qo'y va echkilarning 16% i Xitoyga tog'ri keladi.

Transporti. Hozirgi vaqtda 60 ming km ga cho'zilgan mamlakat temiryo'llarida yil davomida tashilayotgan turli xo'jalik yuklari va yo'lovchilarning teng yarmi ana shu tarmoq hissasiga tog'ri kelmoqda. U, ayniqsa, Xitoyning markaziy rayonlaridan to eng chekka g'arbiy qismlarigacha yoyilgan hududlarini birlashtiradi. Uning temiryo'llari O'zbekiston orqali o'tadigan qadimiy Buyuk ipak yo'li mamlakatlarni bir-birlari bilan bog'lashda ham katta ahamiyatga egadir.

Avtomobil transporti – Xitoyning ikkinchi transport tarmog'i relyef sharoiti juda og'ir bo'lgan baland tog' yoki cho'l rayonlarigacha kirib borganligida ko'zga tashlanadi. Mamlakatning dengiz qirg'og'i bo'yi rayonlarini bog'lashda va tashqi iqtisodiy aloqalarini olib borishda dengiz transporti asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, Xitoyda hozirgi zamon transportining boshqa an'anaviy (daryo, quvur, havo, elektron) hamda noan'anaviy (ot-ulov, arava, velosiped kabi) tarmoqlaridan ham keng foydalaniladi.

Ichki tavofutlari. Xitoyni Sharqiy, Markaziy va G'arbiy iqtisodiy rayonlarga bo'lish mumkin. Shularning ichida Sharqiy iqtisodiy rayon o'zining tabiiy, ijtimoiy, demografik va iqtisodiy salohiyatiga ko'ra har tomonlama peshqadamlik qiladi. Mazkur rayonda mamlakat doirasida sanoat mahsulotlarining 95% i, qishloq xo'jalik mahsulotining 91% i, YIM ning 93,5% i ishlab chiqariladi. Bu o'rinda,

ayniqsa, dengizbo`yi hududlari, yirik shaharlar Shanxay, Pekin, Tyanszin, Guanchjou erkin iqtisodiy zonalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar.1-kitob. - Toshkent , 2004. – В.43.
2. Хоу Вай-лу (и.др). Чжунго сысян тунши / История китайских идеологий. Т.1-2. – Пекин, 1957. –В.127.
3. Ян Юн. История древнекитайской идеологии / Перевод с китайск. - М.,1957. - С142.
4. Быков Ф.С. Зарождение общественно-политической и философской мысли в Китае. - М., 1966. -С. 45.
5. Ян Хин-шун. Древнекитайский философ Лао-цзы и его учение. - М.- Л., 1950. - С.106.
6. Фэн Ю-лань. Краткая история китайской философии. - СПб, 1998. - С. 91.
7. Быков Ф.С. Зарождение общественно-политической и философской мысли в Китае. - М., 1966. - С. 45.
8. Ян Юн-го. История древнекитайской идеологии. - М., 1957. – С. 123.
9. Хоу Вай-лу (и.др). Чжунго сысян тунши (История китайских идеологий). Т.1-2. - Пекин.1957. –С.164.
10. Демин Р. Н. Школа инь-ян //Культуры в диалоге. Вып.1. – Екатеринбург, 1992. – С. 97.
11. Фэн Ю-Лань Школа «Инь-Ян» и древнекитайская космогония // Краткая история китайской философии. - М.: Евразия, 1998. – С. 152.
12. Лю Цзя Рассуждение Сыма Цяня о «шести школах» / пер. Кроль Ю. Л. // Китай: история, культура и историография. - М.: Наука, 1977. - С. 131—132.
13. Нидэм, Джозеф. Происхождение и развитие теории Пяти элементов: Школа натуралистов (Иньянцзя) и Цзоу Янь // Китайская геомантия./ Сост., вст. ст., пер., примеч. и указ.,М. Е. Ермакова. - СПб: Петербургское востоковедение, 1998. - С. 215 - 228.